

Ne'matova Chehrona Qudrat qizi

Buxoro viloyat Jondor tuman 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

E-mail: cheronanematova050712@mail.com

O'ZBEKISTON SINFLARIDA LOTIN TILIDAGI OT SO'Z TURKUMINI O'RGATISH METODLARI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Lotin tili va tibbiy terminologiya fanidan "Ot so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari"ni o'rganishda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari o'zbek guruhlarda anatomik atamalarni yodlashdagi qiyinchiliklar yoritiladi.

Kalit so'zlar: ot so'z turkumi, rod tushunchasi, rus tili, o'zbek tili, kategoriya.

ANNOTATION: This article highlights the difficulties in memorizing anatomical terms in Uzbek groups of medical higher education institutions in the study of "Nouns and its grammatical categories" from the science of Latin language and medical terminology.

Key words: noun group, root concept, Russian language, Uzbek language, category

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ЛАТИНСКИХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В УЗБЕКИСТАНСКИХ КЛАССАХ

АННОТАЦИЯ: В данной статье освещаются трудности запоминания анатомических терминов в узбекских группах медицинских вузов при изучении «Имя существительное и его грамматические категории» из науки латинского языка и медицинской терминологии.

Ключевые слова: группа существительных, корневое понятие, русский язык, узбекский язык, категория.

Barcha tillarda bo'lganidek lotin tilida ham 6 ta mustaqil so'z turkumlari bor. Ular: Nomen Substantivum (ot), Nomen Adjectivum (sifat), Nomen Numerale (son), Pronomen (olmosh), Verbum (fe'l), Adverbium (ravish). Anatomik terminologiya bo'limi ot so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalarini o'rganishdan boshlanadi. Bu bo'limda ot, sifat va son so'z turkumlari va ularning kategoriyalarini o'rganish asnosida anatomik atamalar o'ganilib yodlanadi. Ot so'z turkumi va uning kategoriyalardan boshlasak. Ot (Nomen Substantivum)—mustaqil so'z turkumlaridan birinchisi hisoblanadi. U boshqa turkumlardan bir necha belgi—xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zbek tilida ot so'z turkumi 3 xil grammatik kategoriyaga ega: 1) son kategoriyasi; 2) egalik kategoriyasi; 3) kelishik kategoriyasi. Lotin tilida esa otlar xuddi rus tilidagidek 3 ta rodlarda: genus masculinum (mujskoy rod), genus femininum (jenskiy rod) va genus neutrum (sredniy rod), 2 ta son: numerus singularis (birlik son), numerus pluralis (ko'plik son), 5 ta kelishiklar: casus nominativus (bosh kelishik), casus genitivus (qaratqich kelishik), casus dativus (jo'nalish kelishik), casus accusativus (tushum kelishik), casus ablativus (o'rin-payt kelishigi), lug'at shakli (forma lexicalis) va 5 xil turlanishga ega. Lotin tilida ham barcha tillarda bo'lganidek kishi nomlari (Hippocrates, Claudius Galenus, Andreas Vesalius, Avicenna) va ayniqsa farmasevtikaga doir terminlar: dorivor preparatlar, dorivor osimlik va kimyoviy element nomlari bosh harflarda yoziladi. Lotin tilida otlar anatomik terminlarda berilganda ega, qaratqichli aniqlovchi vazifalarida keladi. Rus tili otlari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, rus tilida otlar son va kelishik formalariga ega va uch rodga, ya'ni mujskoy, jenskiy va sredniy rodlarga bo'linadi. O'zbek tilida esa otlar rodlarga qarab farq qilinmaydi, shuning uchun o'zbek

guruhlarida tibbiyot talabalari otlarni rod(larga) qo'yishda va tarjima qilishda biroz qiynalishadi, rus guruhlarida esa rus tilida rod(turlanish) tushunchasi borligi uchun terminlarni yodlash va tarjima qilish nisbatan osonroq kechadi. Lotin tilida otlar besh xil turlanishga ega. Anatomik terminologiya bo'limida asosan otlarni bosh (Nominativus) va qaratqich (Genetivus) kelishigida turlaymiz. Bu bo'limda otlarni turlanish tipi qaratqich kelishigining (Genetivus Singularis) birlikdagi qo'shimchasi yordamida aniqlanadi. Otlarni qaratqich kelishigida turlashi yoki qaratqich kelishik qo'shimchalarini yaxshi bilishi moslashmagan aniqlovchili atamalarni tarjima qila olishi uchun kerak bo'ladi. Moslashmagan aniqlovchi degani ikki xil kelishikdagi (bosh kelishik va qaratqich kelishigidagi) otdan iborat anatomik terminlar hisoblanadi va qaratqich kelishik qo'shimchali ot anatomik atamada aniqlovchi vazifasida keladi. Masalan: corpus mandibulae (pastki jag'(ning) tanasi), basis patellae (tizza qopqog'i(ning) asosi), apex nasi (burun(ning) uchi) va h. Bunday terminlarni tarjima qilishda talabalar qiynaladigan jihati terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilayotganda qaratqich kelishigi qo'shimchasi-ning yashirin holda kelishidir. Corpus mandibulae va basis patellae atamalarini lotin tilidan rus tiliga tarjima qilganda (телo нижней челюсти) va (основание надколенника) tarzida tarjima qilinadi. Ko'rinib turganidek ular qaratqich kelishigi qo'shimchasida turibdi. Talabalar anatomik terminlarni lotin tilidan o'zbek tiliga va aksincha o'zbek tilidan lotin tiliga tog'ri, sifatli hamda tez tarjima qila olishlari uchun terminlarni yod olishlari zarur va muhimdir, shundagina Lotin tili fanidan va "Odam anatomiyasi" fanidan ham terminlarni bema'lol tushunadi va tarjima qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakayev, N. B., Shodiev, S. S., Khafizova, M. N., & Ostonova, S. N. (2020). SHAKESPEARS LEXICON: REASON WORD AS A DESIGN OF THE CONCEPT OF THE ABILITY OF THE HUMAN MIND TO ABSTRACTION, CONCLUSION. *Theoretical & Applied Science*, (6), 162- 166.
2. Nematilloeyevna, K. M. The Easy Ways of Learning Medical Plants (Phytonyms) in the Department of Pharmaceutical Terminology. *JournalNX*, 7(06), 274-277.